O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING JIZZAX
VILOYATI BOSHQARMASI

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel/Faks: 71-203-11-09, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Safarov Bobir Sabirjanovich

2026 - yil 18 - avgustdagi 293445 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Ko‘p qavatli turar-joy binolari va majmualari - 5 qavatgacha.
Buyurtmachi: BUNYODKOR GRAND OPTIMAL MCHJ
Bosh loyihachi: "JIZZAKH GEODETIC" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: erkin tanlov asosida
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 136825

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi 07.04.2026 yildagi YU-1330157-sonli va YU-1330161-sonli bayonnoma. Ko'chmas mulkni birlashtirish va uning chegaralarini belgilashning 286962687-sonli dalolatnomasi.

1.2. Zomin tuman hokimligi bilan kelishilgan va buyurtmachi BUNYODKOR GRAND OPTIMAL MCHJ tomonidan 05.06.2026 yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig’i.

1.3. Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 12. 05.2026 yilda berilgan №1708-1708218-268092-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Davlat ekologik ekspertiza markazi Jizzax viloyati boshqarmasi tomonidan 23.06.2026 yilda berilgan 01-02/04-3455-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 07.07.2026 dagi 305269066-sonli xulosasi.

1.6. “GEODELTA” MCHJ ning 2026 yil 9 iyulda berilgan 226070782-sonli qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari bo‘yicha xulosasi.

1.7. Muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar.

1.9. “BUNYODKOR GRAND OPTIMAL” MCHJ va "JIZZAKH GEODETIC" MChJ o’rtasida 05. 05.2026 yilda loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun tuzilgan 25/15-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. BUNYODKOR GRAND OPTIMAL MCHJning “Shaffof qurilish” MAT orqali 21.07.2026 yildagi 136825-sonli murojaati.

2.10. Ishchi loyiha tarkibiga ko‘ra ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari elektron tarzda taqdim qilingan.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Loyiha bosh rejasi.

Jizzax viloyati Zomin tumani “Nihol” MFY Bo’ston ko’chasi hududida 5 qavatli turar-joy binosi qurilishi bosh rejasi (GP) bo'limi Jizzax viloyati qurilish va uy joy komunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan berilgan 12.05.2026-yildagi, 1708-1708218-268092sonli ART asosida, 1:500 masshtabdagi topografik xaritada, barcha sanitariya talablariga rioya qilgan holda bajarilgan.

Hudud to'rt tomondan quyidagilar bilan chegaralanadi:

- Shimolda – yakka tartibdagi turar-joy binosi;
- Janubda – ko’p qavatli turar-joy binosi qurilishi uchun yer maydoni;
- Sharqda - avtomobil yo’li;
- G'arbda – bo’sh yer maydoni bilan.

Bosh reja ishchi loyihasida quyidagi bino va inshootlar va ish turlari aks etgan: Hududda mavjud bino va inshootlar tarkibi: - Qo’shni hudud mavjud binolar, - Chiqindixona. Hududda qurilayotgan yangi bino va inshootlar tarkibi: - Loyihadagi 5 qavatli turar-joy binosi, - Oqova suv hovuzi (Выгреб), - Bolalar maydonchasi, - Avtoturargoh, - Transformator. Qurilish boshlanishidan avval hudud yuzasi tekislanadi. Hudud obodonlashtirildi, yo'llar va piyodalar o'tish yo'llari qattiq sirtga ega. Qurilish maydonining vertikal rejasi binolarni mavjud relyefga nisbatan to'g'ri joydashtirish, yashil maydonlarni, sug'orish imkoniyatini, shuningdek, chiqindilarni va yomg’ir va qor suvlarini hudud yuzasidan olib chiqilishi ta'minlandi. Yo'llar, piyodalar yo'llari beton (armosetkali) qoplamasi bilan ta'minlangan. Sport maydoni zichlangan qum qoplamasi bilan ta'minlangan. Shuningdek hudud ko'p yillik manzarali daraxtlar va yashil maysalar bilan ko'kalamzorlashtiriladi. Hududga suyanchiqli o'rindiq va kichik axlat qutilari o'rnatiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning hududda erkin, to'siqsiz harakatlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan hamda maxsus belgi asosida avtoturargoxda o'rin ajratilgan.

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida hududda quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilgan:

1. Qurilayotgan binolar yaqinida yong'inga qarshi shit joylashtirilgan;
2. Qurilayotgan binolar yaqinida xovuz joylashtirilgan;
3. O't o'chirish mashinalarining barcha binolar yaqiniga borishi uchun qattiq qoplamali yo'llar bilan ta'minlangan.

Taqdim etilgan chizmada ishlab chiqilgan binolar hamda inshootlar loyihalarining bog'lanish chizmasini elektron formatda hududdagi geodezistga beriladi. U elektron fayldan foydalanib bosh rejadagi bino va inshoot o'qlarini koordinatalarini yechib oladi. Shu ma'lumotlarni u elektron taxeometr yoki boshqa elekton uskunalarga kiritib loyihani asl holga ko'chirishi (razbivka) mumkin. Buyurtmachining talabi asosida, moliyaviy ta'minlanganlik miqdorining kamligi sababidan hududda yuqorida keltirilgan tadbirlardan boshqa ish hajmlari loyihada kiritilmasligi ma'lum qilingan.

Ajratilgan yer hududi balansi:

- Qurilish hududi - 1000.0m2;
- Bino osti maydoni - 637.98m2;
- Yo'l va yo'laklar maydoni - 62.02m2;
- Ko'kalamzorlashtirilgan hamda bo’sh maydon 300.0m2.

3.2. Qurilish maydoning xususiyatlari.

- Qurilish va iqlim zonasi – II;
- Tashqi havoning taxminiy qishki harorati – 16 g S;
- Shamolning standart bosimi – 0,38 kPa;
- Standart qor yuki – 0,50 kPa;
- Tuproq sharoitini hisobga olgan holda qurilish maydonining seysmikligi – 7 ball.

3.3. Arxitektura qurilish yechimlari

Turar joy binosi.

Turar joy binosi to’g’ri to’rtburchak shaklda loyihalangan bo’lib o’q bo’ylab umumiy o’lchamlari 17,4x39,6m ni tashkil qiladi. Bino 5 qavatli, yerto’lali, 2 yo’lakli qilib loyihalangan. Xonalar balandligi poldan shiftgacha yerto’lada h=1,6m, 1-2-3-4-5-qavatlarda h=2,7mni tashkil qiladi.

Xonadonlar soni:

2 xonali xonadonlar soni - 30 ta;

3 xonali xonadonlar soni - 10 ta;

Jami xonadonlar soni - 40 ta.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlar:

Qurilish maydoni – 673,5 m2;

Umumiy maydon – 3290,0 m2;

Foydali maydon – 2348,6 m2;

Xonadonlar maydoni – 2310,0 m2;

Yashash maydoni – 1419,0 m2;

Qurilish hajmi – 1279,6 m3.

3.4. Konstruktiv yechimlar

Poydevor – qalinligi 400mm bo’lgan monolit quyma temir-beton plita. Beton sinfi B20. Poydevor armaturalardan to’qilgan setkalar yordamida mustahkamligi oshirilgan.

Yerto'la devorlari - qalinligi 400mm bo'lgan yig’ma temir-beton FBS bloklaridan.

Ustunlar (kolonna) - o'lchami 400x400mm bo'lgan monolit quyma temir-betondan. Beton sinfi B25. Ustunlar armaturalar yordamida mustahkamligi oshirilgan.

To'sinlar (balka) - o'lchami 400x400mm bo'lgan monolit quyma temir-betondan. Beton sinfi B25. To'sinlar armaturalar yordamida mustahkamligi oshirilgan.

Tashqi devorlar - qalinligi 380mm bo‘lib M75 markali pishiq g‘ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Devorlar o‘zaklar va gorizontaliga setkalar yordamida kuchaytirilgan. Devorlar tashqi tarafdan issiq saqlovchi material (bazalt tolali) bilan qoplangan.

Ichki devorlar - qalinligi 380mm bo‘lib M75 markali pishiq g‘ishtdan va qalinligi 250mm bo’lgan gozobloklardan terilgan. O‘zaklar (serdechnik) - quyma monolit temir-betondan. Beton sinfi B15. O‘zaklar armaturalar yordamida mustahkamligi oshirilgan.

Pardevorlar (peregorodka) - qalinligi 120mm bo‘lib M75 markali pishiq g‘ishtdan M50 markali qorishma yordamida terilgan. Devorlar o‘zaklar va gorizontaliga setkalar yordamida mustahkamligi oshirilgan.

Zinapoya - quyma temir-betondan. Beton sinfi B20. Zinapoya setkalar yordamida mustahkamligi oshirilgan.

Orayopma va tomyopma - g'ovakli yig'ma temir-beton plitalardan.

Tom - chordoqli. Konvert shaklda qalinligi 0.51mm bo’lgan polimer qoplamali prof.listlar bilan yopilgan.

3.5. Energiya samaradorlik.

- barcha tashqi to’siqlar (devorlar, qoplamalar, derazalar) energiya tejash shartlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan;
- bino energiya tejamkor issiqlik izolyasiyasi materiallar bilan ximoyalangan;
- yoritish tizimida energiya tejamkor lampalardan foydalanish ko‘zda tutilgan;
- binoda quyosh panellari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

3.6. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish:

Loyiha doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun alohida maxsus avtoturargoh, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish maqsadida yo’lak qismida taktil yo‘naltiruvchi va ogohlantiruvchi qoplamalar, binoga kirish qismida pandus, zina va panduslarda 0,7 – 0,9m balandlikda tutqichlar, zinalarda sirpanishga qarshi choklar, chaqiruv tugma, eshiklar atrofida kontrast lenta, maxsus belgilar, elektron tablo, 2 dona taktil mnemonik diagramma, bino ichki yo’laklari nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz harakatlanishlari uchun taktil qoplamalar, o’rindiqli aravacha harakatlanadigan shaxslar yuqori qavatlarga tashrif buyurishlari uchun zina qismida 2 dona maxsus ko’tarish moslamasi loyihalangan.

3.7.Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar:

Loyihaning umumiy ko‘rsatmalar qismida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra loyihalanayotgan binoning funksional yong‘in xavfi bo‘yicha F 1.3 deb olingan. Binoning yong‘inga qarshiligi — II toifa. Bino konstruksiyalarining yong‘in xavfsizligi bo‘yicha funksional sinfi — C0. Loyihada binoning o‘tga chidamlilik darajasi, o‘tga chidamlilik chegaralari va inshootning yong‘in guruhlariga javob berishini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Evakuatsiya holatida binodan chiqish yo‘laklari tizimi belgilangan va yoritish chiroqlari bilan ta’minlangan. Yog‘ochdan yasalgan tom yopish konstruksiyalari yong‘inga qarshi vositalar bilan ishlov berilgan, tok o‘tkazmaydigan barcha elektr jihozlarining tuproqlanishi va nolga teng bo‘lishi belgilangan. Binoning tom qismida aylanasi temir panjara bilan o‘ralgan, bino xonalari yong‘in signalizatsiyasi xabarlagichlari bilan jihozlangan. Bino xonalari gazlashtirilmaganligi va elektr plitalar orqali isitilishi sababli is gazi konsentratsiyasini o‘lchovchi hamda gazni manbadan yopish klapani bilan jihozlangan avtomatik gaz signalizatorlari o‘rnatilmagan. Hududda tashqi yong‘inga qarshi suv ta’minoti uchun 1 ta yer osti suv olgichi nazarda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Buyurtmachining loyiha topshirig’iga asosan elektr ta’minoti, isitish va shamollatish loyiha qismi keyinchi bosqichda ekspertiza ko’rigidan o’tkaziladi.

4.2. Ichimlik suv va oqova suv

Sovuq suv ta'minoti maishiy va ichimlik sifatida qabul qilinadi. Kirishlar soni bitta. Maishiy suv ta'minoti quvurlari PN10 d-20,25,32,40,50 mm polipropilen quvurlaridan tayyorlanadi. Sanitariya moslamalariga ulanishlar devorlarda yashiringan va ochiq holda yotqizilgan.Suv bosimini taminlab beruvchi Комплект модульная насосная установка HYDRO MULTI-E 2 CME 5-3 с гидробаком в комплекте: Qтек=4,0 м3/час, Нтек=30м,N=1,10 кВт 3 x 380-415 V quvvatidagi nasos qurilmasi bilan taminlangan. Issiq suv ta'minoti 40-dona 50 litr elektr suv isitgichilaridan avtonom olinadi. Issiq suv quvurlari PN20 va PP-RCT quvurlaridan montaj qilingan. Loyiha, shuningdek, bino tom qismiga 8-ta 300 litrli quyosh suv isitgich kollektorlaridan o`rnatilishi rejalashtirilgan. Ichki maishiy kanalizatsiya tarmoqlari 50-100mm GOST 22689-2014 ga muvofiq plastik quvurlardan tayyorlangan. Tashqi suv ta’minoti manbai suv taminoti tashkilotining 15.07.2026 sanasidagi №42 sonli murojot raqam asos qilinib hududdagi mavjud D200mm polietilen quvur xisoblanadi. Ulanish nuqtasidan asosiy bino uchun suv bosimini taminlab beruvchi nasos xonasiga yo`naltiriladi. Tashqi tarmoq uchun D63 202 metr,D32 39 metr bo`lgan politelin quvurlardan foydalanilgan. Tashqi kanalizatsiya tarmog‘lariga chiqqan oqava suv tarmog‘i Dn160 mm polietilen quvurlar bilan loyiha topshirig`iga asosan 200m3 hajmdagi oqova suv tashlash handaqiga tashlangan. Ekspertiza natijalari. Loyiha smeta hujjatlari QMQ 2.04.02-19 «Suv ta’minoti Tashqi tarmoqlar va inshoatlar” ga asosan ishlab chiqilgan. Ekspertiza jarayonida soxa eksperti xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, ishchi loyihaga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

4.3. Yong‘in signalizatsiyasi:

Ushbu loyihada videokuzatuv nazorat tarmog'i, internet tarmog'i bilan ta'minlangan. Videokuzatuv nazorat tizimi himoyalangan ob'ekt holatini kuzatish, uni ko'rish imkoniyati bilan kerakli vaqtga video yozib olish uchun mo'ljallangan. Videokuzatuv tizimini yaratishdan maqsad - binolarni himoya qilish, ruxsatsiz shaxslarning noqonuniy xatti - harakatlariga o'z vaqtida javob berish, ma'lumot almashish, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda manfaatdor xizmatlarga tezkor javob berish, arxiv (operativ ma'lumotlar bazasi) yaratish, nazorat qilish. va joriy voqealarni hujjatlashtirish, har qanday ulangan kameralardan real vaqtda real voqealarni ko'rish uchun masofadan kirish. Videokuzatuv televizor kameralari va monitorlarni o'rnatish orqali ta'minlanadi, monitorlar texnik qavat xonasiga o'rnatiladi. Domofon tarmog‘i bo‘yicha texnik yechim 1.Tizimning umumiy vazifasi Domofon tarmog‘i turar-joy binosida kirish nazoratini ta’minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tashqi qo‘ng‘iroq paneli, kvartira ichidagi abonent trubkalari, elektr qulf va quvvat manbai orqali ishlaydi. 2.Kommutator joylashuvi Kommutator 1-qavatda past tok qurilmalari uchun ajratilgan texnik bo‘limda o‘rnatiladi. Qurilma xizmat ko‘rsatish va texnik tekshiruvlar uchun qulay bo‘lishi zarur

4.3. *Qurilish hududiga aloqador barcha muhandislik tarmoqlari hususan, gaz, suv va oqova suv, elektr tarmoqlari ximoya zonalari saqlanishi, qurilish ishlari davomida tegishli tashkilot vakillari ishtiroki ta’minlanishi hamda kelishilishi buyurtmachi tashkilot zimmasidadir.*

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Davlat ekologik ekspertiza markazi Jizzax viloyati boshqarmasi tomonidan 23.06.2026 yilda berilgan 01-02/04-3455-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Jizzax viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 07.07.2026 dagi 305269066-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Loyiha - smeta hujjatlari ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko‘ra, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) 12 foiz hisobga olingan holda, buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz **11 589 907 745** so‘m miqdoridagi loyiha smeta qiymati buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan. Obyektning qurilish qiymati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o’tkazish tartibotlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” qarorining 6-bandiga va buyurtmachining 18.08.2026 yildagi buyurtma xatini inobatga olgan holda, loyiha – smeta hujjatlarining smeta qismi ekspertiza ko’rigidan o’tkazilmadi.

6.3. Mazkur loyiha bo‘yicha ekspertiza xulosasi buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar, hisob-kitoblar, smeta ko‘rsatkichlari va asoslovchi hujjatlar doirasida shakllantirilgan bo‘lib, keyinchalik ushbu ma’lumotlarning noto‘g‘ri, to‘liq bo‘lmagan, haqqoniy emasligi yoki amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda, bundan kelib chiqadigan moliyaviy, huquqiy, texnik, soliq va boshqa oqibatlar uchun ekspertiza tashkiloti javobgar hisoblanmaydi.

6.4. Ekspertiza tomonidan bildirilgan tavsiya va e’tirozlar buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti tomonidan qabul qilinmaganligi hamda loyiha qiymati buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti tomonidan o‘zgartirishsiz qoldirilganligi sababli, smeta hujjatlarida qabul qilingan narx ko‘rsatkichlari, resurslar qiymati, ish hajmlari, smeta me’yorlari (rasenkalar),

iqtisodiy parametrlar va loyiha qiymatining iqtisodiy asoslanganligi yuzasidan javobgarlik buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti zimmasiga yuklatiladi. Mazkur holat bilan bog‘liq ravishda keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday moliyaviy, huquqiy, texnik, soliq va boshqa oqibatlar uchun ekspertiza tashkiloti javobgar hisoblanmaydi.

6.5. Buyurtmachining 2026 yil 18 avgustdagi xatiga asosan nogronligi bo’lgan shaxslar qulay va to’siqsiz harakatlanishi uchun barcha shart sharoitlar yaratish bo’yicha kafolat xati.

6.6. Buyurtmachi qurilish ishlarini boshlashdan oldin loyiha bilan to'liq tanishib chiqishi hamda barcha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishgan holda qurilish ishlarini boshlashi lozim.

6.7. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25- moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579 - sonli qarorining 1 - ilova 3 - bob 29 - bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.9. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatilaring xaqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi xamda loyixa tashkiloti javobgardir.

6.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.08.2022 yildagi “Chiqindilar bilan bog’liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risidagi” PF-189-sonli Farmoni 6-bandi ijrosi, 23.11.2023 yildagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risidagi” PF-199-sonli Farmoni 15-bandi ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirining 12.06.2023 yildagi 153-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan ShNQ 2.07.01-03* ning 19-ilovasi ijrolarining ta’minlanishi buyurtmachi, pudratchi, loyiha tashkiloti va binoni qabul qilish komissiyasisi zimmasidadir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda **“Jizzax viloyati Zomin tumani G’.G’ulom MFY hududida 3 dona 5 qavatli 20 xonadonli 2-3 xonadan iborat turar joy binosi qurilishi”** obyektining loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqishga va kelishishga tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Adilbayev Amriddin Xanimkul O‘g‘li, Djurayev Anvar Lapasovich, Muxamadiyev Suxrobjon Baxtiyorovich, Jo‘rayev Bekzod Atham O‘g‘li, Abduvaxidov Sarvar Anvar O‘g‘li, Amonov Javoxir Muxammadjon O‘g‘li, Hamzayev Sardorbek Abdusattor O‘g‘li

Bosh ekspert

HAMZAYEV SARDORBEK ABDUSATTOR O‘G‘LI